



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “24” may

BUYRUQ № 110

Toshkent sh.

**“Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish
bo‘yicha uslubiy qo‘llanma”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, statistika sohasida tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman**:

1. “Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019- yil 18- yanvardagi “Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 1- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov